

MIQDOR SONLARNING BADIY ADABIYOTIDAGI O‘RNI

Makhtatillayev Muslimbek

JDPI O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich talabasi

Narsalarning son-sanog‘i va tartibini bildirib, «qancha?», «necha?», «nechanchi?» so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlar son deyiladi¹. Sonlar narsalar, belgi-xususiyatlar, harakat-holatlarining miqdori yoki tartibini bildiradi. Shunga ko‘ra sonlar ikki guruhga bo‘linadi: 1) miqdor sonlar; 2) tartib sonlar.

Miqdor sonlar qanday miqdorni bildirishiga ko‘ra sanoq, dona, chama, taqsim, jamlovchi, kasr sonlarga bo‘linadi². Son-sanoqni bildiruvchi sonlar sanoq sonlar deyiladi. Sanoq sonlar yozuvda, ko‘pincha, arab raqami bilan yoziladi³. Masalan: «Tashrifchi hech narsa demasdan, cho‘ntagidan bir qut sigareta chiqardi-da, to‘rtta sigaretani silkitib, stolga tashladi (Agata Kristi).

Narsalarning miqdorini donalab ifodalaydigan sonlar dona son deyiladi. Ular -ta qo‘shimchasi yordamida hosil qilinadi. Donalash ma‘nosi -ta qo‘shimchasidan tashqari dona so‘zi bilan ham ifodalanadi. Narsalarning turini ta‘kidlash uchun bosh (hayvonlar), nafar (shaxslar), tup (o‘simliklar), litr (suyuqlik), gramm (og‘irlik) kabi so‘zlar ham ishlatiladi⁴. Masalan, Do‘xtir jirkib tashlaydi:

– Men qayoqdan bilaman, bugun beshtasining oyog‘ini kesdim! (Erix Mariya Remark).

Narsaning miqdorini taxminlab, chamalab ko‘rsatadigan sonlarga chama son deyiladi. Ular -tacha, -lab, -larcha kabi qo‘shimchalar yordamida hosil qilinadi. Shuningdek, chama ma‘nosi sonlarni juftlash yo‘li bilan ham ifodalanadi: ikki-uch, besh-olti, o‘n-o‘n besh⁵. Masalan, Men bitta-yarimtadan pora olgan bo‘lsam ham, azbaroyi Xudo biron g‘araz bilan olgan emasman (Gogol). Ushbu gapda bitta-yarimtadan so‘zi taqsim ma‘nosini ifodalayotgan ko‘rinsa ham, lekin gapning egasi necha kishidan pora olganini taxminan, chamalab aytyapti. Shu nuqtayi nazardan bu so‘zni chama sonlar guruhiga kiritishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Narsalarning miqdorini jamlab ko‘rsatadigan sonlar jamlovchi sonlar deyiladi. Ular -ov, -ala, -ovlon kabi qo‘shimchalar yordamida hosil qilinadi. -ov, -ala qo‘shimchalari faqat ikkidan o‘ngacha bo‘lgan sonlarga qo‘shilib, jamlik ma‘nosini ifodalaydi. Bu qo‘shimchalar unli bilan tugagan sanoq sonlarga qo‘shilganda, asos qismdagi i unlisi tushib

qoladi⁶.

Masalan, Bu er-xotin aslida amakivachchalar bo'lib, otalarining qistovi bilan turmush qurishgan, har ikkisi hazoriylardan bo'lib, shia mazhabiga e'tiqod qilishardi (Xolid Husayniy). Biz qoidada ko'rdikki, jamlovchi sonlar -ov, -ovlon, -ala qo'shimchalari orqali hosil qilinadi. Lekin misolda keltirilgan ikkisi so'zida bu qo'shimchalarning hech biri ishtirok etmagan. Badiiy asarlarda ko'pincha ikkalasi so'zidan ko'ra ikkisi so'zini qo'llash yetakchilik qiladi. Nodar Dumbadzening "Shamol ortidan yugurib" romanidan olingan yuqoridagi misolda qatnashgan ikkisi so'zini ikkovi deb ham ikkalasi deb ham tahlil qilishimiz til qoidalariga mutlaqo zid bo'lmaydi va egalik qo'shimchasi ham jamlovchi sonlar hosil qilishda ishtirok etishi mumkinligini ko'rsatadi.

Narsalarning miqdorini taqsimlab ko'rsatadigan sonlarga taqsim son deyiladi. Ular –tadan qo'shimchasi yordamida hosil qilinadi⁷. Masalan, Men hatto ismini ham, familiyasini ham bilmaydigan...har oyda ming so'mdan pul yuborib turadigan, butun jazmanlarimni mendan yuz o'girtirib sha'nimga dog' tushirgan odamga hech narsa kerak emas emish (Nodar Dumbadze). Butun miqdorning qismini ifodalovchi sonlar kasr son deyiladi. Butun miqdorni bildiruvchi qism ko'pincha chiqish kelishigida keladi: o'ndan bir, uchdan ikki.

ESDA TURING. ifodalari ikkidan bir, to'rtidan bir, sakkizdan bir tarzida, shuningdek, yarim, chorak, nimchorak tarzida o'qiladi⁸. Masalan, Masalan, uying uchdan ikki qismi bitar-bitmas, qor yog'ib qoldi.

Badiiy asarlarda eng ko'p ishlatiladigan sonning ma'no turlari tartib sonlar, shuningdek, miqdor sonlardan sanoq, jamlovchi va dona sonlardir. Eng kam qo'llanuvchilari esa kasr va chama sonlardir. Buni tahlilda ko'rib chiqamiz. A. Qahorning "Sovchilar" hikoyasida 19 ta son turkumiga oid so'z qatnashgan bo'lib ulardan 11 tasi jamlovchi, 5 tasi sanoq, 2 tasi tartib son va 1 tasi chama sonidir. Dona, kasr va taqsim sonlar ishtirok etmagan.

1 _____

¹N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D. Nabiyeva. Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik— T.: «Tasvir» nashriyot uyi. 2017. 160-b.

²N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D. Nabiyeva. Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik— T.: «Tasvir» nashriyot uyi. 2017. 161-b.

³N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D. Nabiyeva. Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik— T.: «Tasvir» nashriyot uyi. 2017. 163-b.

⁴N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D. Nabiyeva. Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik— T.: «Tasvir» nashriyot uyi. 2017. 164-b.

⁵N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D. Nabiyeva. Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik— T.: «Tasvir» nashriyot uyi. 2017. 165-b.

A.Qahorning yana bir “Noqobil qiz” hikoyasida esa 8 ta son turkumiga kiruvchi so‘z qatnashgan bo‘lib,ulardan 6 tasi sanoq, 1 tasi chama va 1 tasi tartib sonidir.

Qonunchilik hujjatlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, Jinoyat kodeksining 270-moddasi taqiqlangan ekinlarni ekish deb nomlanib,unda 21 ta son va raqamlar qatnashgan bo‘lib,ulardan 12 tasi sanoq va 9 tasi tartib songa oid.

Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, badiiy asarlarda ham, qonunchilik hujjatlarida ham eng ko‘p qo‘llaniladigan sonning ma’no turlari tartib sonlar,sanoq va jamlovchi sonlardir.Matematikaga doir kitoblarda esa kasr,taqsin va dona sonlar yetakchilik qiladi.Bularning hammasi son so‘z turkumining jamiyat bilan uzviy bog‘liq ekanligini yaqqol namoyon etadi.

⁷N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D.Nabiyeva.Ona tili: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik— T.: «Tasvir» nashriyot uyi. 2017.168-b.

⁸N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D.Nabiyeva.Ona tili: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik— T.: «Tasvir» nashriyot uyi. 2017.170-b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov,

D.Nabiyeva.Ona tili: Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 6-sinfi uchun darslik— T.: «Tasvir» nashriyot uyi. 2017. – 208 b.

2.Agata Kristi.Katta toʻrtlik: detektiv;rus tilidan K.Nosirova tarjiması.–T.:Spectrum Media Group,2019.–63-b.

3.Erix Mariya Remark.Gʻarbiy frontda oʻzgarish yoʻq: roman. Ruschadan Nizom Komil tarjiması. – Toshkent:

Yangi asr avlodi, 2016. – 33-b.

4.Gogol.Revizor.T.: "Oʻqituvchi" 1974.–12-b.

5.Nodar Dumbadze.Kukaracha.T.: "Sharq".2011.–45-b.

6.Xolid Husayniy.Shamol ortidan yugurib:roman.Tarjimon Rustam Jabborov.T.: "Yangi asr avlodi",2016.– 8-b.

7.Abdulla Qahhor.Bemor:hikoyalar – T.: "Adabiyot uchqunlari", 2019. –50-53 va 68-71-betlar.

8.Jinoyat kodeksi.T.: "Adolat", 2015. –173-174-betlar.